



FARMATSIYA, IMMUNITET VA VAKSINA PHARMACY, IMMUNITY AND VACCINE ФАРМАЦИЯ, ИММУНИТЕТ И ВАКЦИНА



Ilmiy-amaliy
jurnal



№2
2025

ISSN: 2181 - 2470

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy - tadqiqot instituti

Хулоса: Кортикостероидли кремнинг оптимал таркибини танлаш ва асослаш учун комплекс структуравий-механик, физик-кимёвий, микробиологик тадқиқотлар ўтказилди. Кремнинг биологик хусусиятларини ўрганилди. Ишлаб чиқарилган кремнинг фармакотехнологик тадқиқотларини ўтказилди. Рационал технологиясини ишлаб чиқиш ва уни стандартлаштириш мақсадида кремнинг реологик хусусиятларини аниқланди. Ишлаб чиқилган дори воситасининг асосий сифат кўрсаткичларини, шунингдек уларни назорат қилиш усулларини белгилаш бўйича тадқиқотлар ўтказилди. Ишлаб чиқилган препаратнинг сақлаш муддати ва сақлаш шартларини аниқланди.

QABZIYATGA QARSHI BIOFAOL QO'SHIMCHANING MAHSUS FAOLLIGINI O'RGANISH

Adilova N.A., Foziljonova M.Sh., Tadjibayev A.B.

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent shahri,

e-mail: nufuzaxonadilova@gmail.com, tel. +998977736793

Mavzuning dolzarbligi. Qabziyat – bu bemorlarning hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan oshqozon-ichak kasalligi. Ushbu tadqiqot konstipatsiyani davolash uchun tanlangan bioaktiv birikmalarning o'tkir toksikligi va samaradorligini baholashga qaratilgan. O'tkir toksiklik biologik faol birikmalarning xavfsizlik profilini aniqlash uchun standartlashtirilgan *in vivo* modellar yordamida baholandi. Terapevtik samaradorlik farmakodinamik va biokimyoviy tahlillar orqali baholandi, bunda ichak harakati, axlat chastotasi va ichak mikrobiota modulyatsiyasiga e'tibor qaratildi. Dastlabki topilmalar shuni ko'rsatadiki, sinovdan o'tgan birikmalar qulay xavfsizlik chegaralari va kuchli laksatif ta'sir ko'rsatadi, bu esa konstipatsiyani boshqarish uchun yangi yondashuvni taklif qiladi. Ularning uzoq muddatli xavfsizligi va samaradorligini tasdiqlash uchun qo'shimcha klinik tadqiqotlar talab qilinadi.

Tadqiqot maqsadi: Qabziyatni oldini oluvchi biofaol qo'shimcha sifatida tanlab olingan tarkiblarning maxsus faolligini o'rganish. Qabziyatni oldini oluvchi biofaol qo'shimcha sifatida quyidagi tarkiblar o'rganish maqsadida tanlab olindi:

Biologik faol modda № 1 tarkibi:

- Garsiniya Kambodja– 400 mg
- Xitozan – 150 mg
- Senna – 50 mg

- Yashil kofe – 10 mg

Biologik faol modda 2 tarkibi:

- Garsiniya Kambodja– 350mg
- Xitozan – 200 mg
- Senna – 40 mg
- Yashil kofe – 20 mg

Biologik faol modda 3 tarkibi:

- Garsiniya Kambodja– 450 mg
- Xitozan – 100 mg
- Senna – 55 mg
- Yashil kofe – 5 mg

Biologik faol modda 4 tarkibi:

- Garsiniya Kambodja– 400 mg
- Xitozan – 100 mg
- Senna – 70 mg
- Yashil kofe – 40 mg

Material va usullar. Biologik aktiv moddalar № 1, 2, 3, 4 ning qabziyatni oldini oluvchi ta'sirini 190 210 g vaznli 24 ta oq kalamushlarda o'rganildi. Tajriba hayvonlari 6 tadan 5 ta guruhga bo'lindi. Quyidagi tartibda biologik aktiv moddalar berildi.

1. **Nazorat guruhi:** Bir marta og'iz orqali 2 ml tozalangan suv kiritildi;
2. **Tajriba guruhi:** Bir marta og'iz orqali Biologik aktiv modda-1 1,0% eritmasi (O'zbekiston) 50 mg/kg dozada kiritildi;
3. **Tajriba guruhi:** Bir marta og'iz orqali Biologik aktiv modda-2 1,0% eritmasi (O'zbekiston) 50 mg/kg dozada kiritildi;
4. **Tajriba guruhi:** Bir marta og'iz orqali Biologik aktiv modda-3 1,0% eritmasi (O'zbekiston) 50 mg/kg dozada kiritildi;
5. **Tajriba guruhi:** Bir marta og'iz orqali Biologik aktiv modda-4 1,0% eritmasi (O'zbekiston) 50mg/kg dozada kiritildi.

Har bir guruhdagi tajriba hayvonlari maxsus kontenerlarga joylashtirildi va 8 soatlik oraliq bilan ikki marta najas yig'ildi. Najas massasini bo'sh idishning og'irligi va najas bilan to'ldirilgan idish og'irligi farqi asosida hisoblandi. Olingan natijalar "STATISTICA" dasturi yordamida Student juftlik kriteriyasi bo'yicha tahlil qilindi.

Natijalar. Biologik aktiv modda-1 ning ich suruvchi ta'sirini o'rganish davomida, nazorat guruhiga nisbatan najas massasi 1.92 baravar oshgani aniqlandi, biologik aktiv modda-2 ni qabul qilgan tajriba xayvonlarida esa najas massasi 1.73 baravar oshdi. Biologik aktiv modda-3 ni qabul qilgan tajriba

hayvonlarida bu ko'rsatgich 1.6 baravar oshganini ko'rsatdi. Biologik aktiv modda-4 guruhida esa 1.4 marta oshganligi aniqlandi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki biologik aktiv modda-1 eng samarali ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa. Shunday qilib, MCHJ "ACTIMED" tomonidan ishlab chiqilgan Biologik aktiv moddalar № 1, 2, 3, 4 ning spetsifik faolligi o'rganildi va Biologik aktiv moddalar № 1 ich suruvchi faolligi yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu Biologik aktiv modda № 1 ich suruvchi vositasi sifatida qo'llashni davom ettirish tavsiya etiladi.

BIOPREPARATLARNING ASOSIY TURLARI VA DAVOLASHDAGI QO'LLANILISHI

Sharifjonov O.O.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Davolash ishi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi, Sharifjonovoybek2004@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda biopreparatlarning asosiy turlari va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishi o'rganilgan. Biopreparatlar tabiiy yoki mikrobiologik usullar bilan ishlab chiqarilgan, organizmga biologik faol ta'sir ko'rsatadigan moddalar bo'lib, ular kasalliklarning oldini olish, davolash va diagnostika qilishda keng qo'llaniladi. Tezisda biopreparatlarning asosiy turlari, ularning tibbiyotdagi qo'llanilishi va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari biopreparatlarning tibbiyotdagi o'rni va ahamiyatini yoritishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Biopreparatlar, antibiotiklar, vaksinalar, probiotiklar, enzimlar, gormonlar, davolash, tibbiyot, ekologik tozalik.

Kirish. Biopreparatlar – bu tabiiy yoki mikrobiologik usullar bilan ishlab chiqarilgan, organizmga biologik faol ta'sir ko'rsatadigan moddalar bo'lib, ular kasalliklarning oldini olish, davolash va diagnostika qilishda keng qo'llaniladi. Ushbu tezisda biopreparatlarning asosiy turlari, ularning tibbiyotdagi qo'llanilishi va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Biopreparatlarning asosiy turlari: Antibiotiklar bakterial infeksiyalarni davolashda ishlatiladigan moddalar. Ular mikroorganizmlarning o'sishini to'xtatadi yoki ularni yo'q qiladi. Vaksinalar: Immun tizimining javobini kuchaytirish uchun ishlatiladigan preparatlar. Ular organizmni ma'lum kasalliklarga qarshi himoya qiladi. Probiotiklar: Ichak mikroflorasini normallashtirish uchun qo'llaniladigan mikroorganizmlar. Ular hazm qilish tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Enzimlar kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiruvchi

10.	Qodirov J.H., Rizaev J.A., To'xtarov B.E. REABILITATSIYA BO'LIMI HAMSHIRALARI FAOLIYATINING TASHKILIY SHAKLLARINI ILMIY ASOSLASH.....	115
11.	Жаббарова Ш.А., Зупарова З.А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДОБРОКАЧЕСТВЕННОСТИ ФИТОЧАЯ НА ОСНОВЕ АСТИЛЬБЫ КИТАЙСКОЙ.....	118
12.	Фозилжонова М.Ш. ЮМШОҚ ДОРИ ШАКЛЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	119
13.	Adilova N.A., Foziljonova M.Sh., Tadjibayev A.B. QABZIYATGA QARSHI BIOFAOL QO'SHIMCHANING MAHSUS FAOLLIGINI O'RGANISH.....	121
14.	Sharifjonov O.O. BIOPREPARATLARNING ASOSIY TURLARI VA DAVOLASHDAGI QO'LLANILISHI.....	123
15.	Мирсолихова К.М., Зокирова С.З., Эргашева Х.И. ИЗУЧЕНИЕ МИКРОФЛОРЫ РОТОВОЙ ПОЛОСТИ У СТУДЕНТОВ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ХАРАКТЕРА ПИТАНИЯ.....	124
16.	Berdiyeva Z.I. SURUNKALI ZAHARLANISH FONIDA YUZAGA KELGAN IMMUN TIZMI FAOLIYATIDAGI BUZILISHLARINI BARATAF ETISH ISTIQBOLLARI.....	126
17.	Avazova J., Ergasheva X.I. ANTIBIOTIKLARNING TA'SIR MEKANIZMI:HUJAYRA DEVORI, OQSIL SINTEZI, DNK-RNK SINTEZI VA METABOLIZMGA TA'SIRI.....	128
18.	Murodova I.A., Ibragimov A.A., Sharafitdinova G.X. STAPHYLOCOCCUS AUREUS VA UNING METITSILLINGA CHIDAMLI SHTAMMLARIDA ANTIBIOTIKLARGA TURG'UNLIGI XUSUSIYATLARI.....	130
19.	Искандерова Г.Т., Шадманова Н.А., Юлдашева Х.А., Сапаева Ф.Р. ПЕРСПЕКТИВЫ БОРЬБЫ С НОСОКОМИАЛЬНЫМИ ИНФЕКЦИЯМИ С ПОМОЩЬЮ МЕСТНЫХ БАКТЕРИАЛЬНЫХ ФАГОВ.....	131
20.	Мирзаев У., Ражабов Ғ.Х. ҚУТИРИШ КАСАЛЛИГИ БЎЙИЧА ЭПИДЕМИОЛОГИК ТЕКШИРУВЛАР НАТИЖАЛАРИ.....	133
21.	Мирзаев У., Ражабов Ғ.Х. ҚУТИРИШ КАСАЛЛИГИ БЎЙИЧА ЭПИЗООТИК ВА ЭПИДЕМИК ВАЗИЯТ ТЎҒРИСИДА.....	136
22.	Кахаров Б.А., Тешажонова М.М. ИММУНОСТИМУЛИРУЮЩИЕ СВОЙСТВА БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ,	138